

O‘zbekiston
Metama’lumot
Asosiy kapitalga investitsiyalarning
takror ishlab chiqarish tarkibi

Ishlab chiqilgan sana: 25.08.2020

Oxirgi yangilangan sana: 30.04.2024

0. Asoslar

0.1 Qonuniy asoslar

0.1.1 Statistik ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tarqatish uchun javobgarlik

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

2021-yil 11-avgustda Sharqiy Yevropa, Kavkaz va Markaziy Osiyo uchun Rasmiy statistika to‘g‘risidagi namunaviy qonuni asosida ishlab chiqilgan “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi.

Ushbu Qonunning maqsadi rasmiy statistika sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonunning amal qilishi rasmiy statistikani tayyorlovchilarga va undan foydalanuvchilarga, respondentlarga hamda ma’muriy ma’lumotlarni yetkazib beruvchilarga, shuningdek ular o‘rtasida yuzaga keladigan, rasmiy statistikani tayyorlash, tarqatish va muvofiqlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlarga nisbatan tatbiq etiladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi to‘g‘risida nizomga muvofiq, Statistika agentligi rasmiy statistikaning asosiy prinsiplariga rioya etilishini va xalqaro tavsiyalarga muvofiq bo‘lgan statistika uslubiyotlarining birligini ta’minlash; statistika ma’lumotlarini yig‘ishni, uy xo‘jaliklarining statistika kuzatuvlarini, ro‘yxatga olishlarni, bir marotabalik hisobga olishlarni, tanlanma so‘rovlarni va boshqa statistika kuzatuvlarini o‘tkazishni tashkil etish; barcha darajadagi foydalanuvchilarni belgilangan tartibda rasmiy statistika ma’lumotlari bilan ta’minlash; statistika maqsadlarida foydalanish uchun statistika registrlari va tasniflash tizimini yuritish uchun javobgar hisoblanadi.

Shu bilan birga, Rasmiy statistika to‘g‘risidagi Qonunning 14-moddasiga muvofiq statistika organlari quyidagi huquqlarga ega:

- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridan, banklardan hamda boshqa tashkilotlardan statistika kuzatuv shakllarini olish va statistika kuzatuv ma’lumotlaridan statistika maqsadlarida foydalanish;
- statistik birliklar faoliyatining statistika kuzatuvlarini o‘tkazish va olingan birlamchi ma’lumotlardan statistika maqsadlarida foydalanish;
- jismoniy shaxs bo‘lgan respondentlarni statistika kuzatuvlarida ishtirok etganligi uchun rag‘batlantirishni amalga oshirish;

- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, shuningdek boshqa tashkilotlardan statistika dasturlarini bajarish uchun zarur bo‘lgan axborotni so‘rash hamda olish;
- rasmiy statistikani tayyorlash uchun zarur bo‘lgan statistika ma‘lumotlarini yig‘ishga jismoniy va yuridik shaxslarni qonunchilikka muvofiq shartnoma asosida jalb etish;
- statistika ma‘lumotlarini yig‘ish, ularga ishlov berish, ularni umumlashtirish, tahlil qilish, tarqatish va saqlashning zamonaviy usullari va vositalaridan foydalanish hamda ularni milliy statistika tizimiga joriy etish;
- statistika ma‘lumotlarini taqdim etish bilan bog‘liq qoidabuzarliklar aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish haqida ko‘rsatmalar berish va statistika ma‘lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritish;
- statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzgan mansabdor shaxslarga nisbatan ma‘muriy jazo choralarini qonunga muvofiq o‘z vakolatlari doirasida qo‘llash.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-sentabrdagi F-5054-son farmoyishiga muvofiq, mamlakatdagi iqtisodiy va moliyaviy ma‘lumotlar Xalqaro Valyuta Fondining kengaytirilgan umumiy ma‘lumotlar tarqatish tizimi (k-MTUT)ga to‘g‘ri kelishi va uning doirasida muvofiqlashtirilishi kerak.

Statistika jarayonlarini boshqarish, shu jumladan statistika ma‘lumotlarini tayyorlash va tarqatish xalqaro sifatni boshqarish modellari (GSIM, GSBPM, GAMS0)ga asosan ishlab chiqilgan milliy tartib-taomillarga muvofiq amalga oshiriladi.

0.1.2 Ma‘lumot ishlab chiqaruvchi tashkilotlar o‘rtasida ma‘lumotlar almashinuvi va muvofiqlashtirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 11-moddasiga asosan rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika ma‘lumotlarini ishlab chiqishda xalqaro darajada tavsiya etiladigan tushunchalarga, tasniflarga va uslubiyatga amal qiladi.

Vakolatli davlat organi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilarining faoliyatini statistika dasturlari doirasida muvofiqlashtiradi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika ma‘lumotlarini tayyorlash uslubiyatini o‘z vakolatlari doirasida muvofiqlashtiradi.

Rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilarining statistika uslubiyatlarida xalqaro tavsiyalarga nomuvofiqlik aniqlangan taqdirda vakolatli davlat organi statistika uslubiyatlari auditi yakunlariga ko‘ra ushbu tayyorlovchilarga ijro etilishi majburiy bo‘lgan taqdimnomalar kiritish huquqiga ega.

Milliy statistika tizimiga kiruvchi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari tomonidan statistika ma‘lumotlarini shakllantirish va vakolatli davlat organi bilan axborot almashinuvini ta‘minlash uchun mas‘ul bo‘lgan bo‘linmalar tashkil etiladi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar hamda ma‘muriy ma‘lumotlarni yetkazib beruvchilar o‘zlarida mavjud bo‘lgan statistika ma‘lumotlarini va (yoki) ma‘muriy ma‘lumotlarni vakolatli davlat organiga statistika dasturlarida belgilangan tartibda va muddatlarda bepul taqdim etadi.

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasiga asosan, Statistika kengashi vakolatli davlat organi huzuridagi rasmiy statistikaning rivojlantirilishi, faoliyat ko‘rsatishi va muvofiqlashtirilishi masalalari bo‘yicha kollegial maslahat organidir.

Statistika kengashining tarkibi davlat boshqaruvi organlarining, ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining vakillari, shuningdek statistika bo‘yicha milliy ekspertlar orasidan tuziladi.

0.1.3 Respondentlar individual ma'lumotlarining maxfiyligi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 27-moddasiga asosan, rasmiy statistikani tayyorlovchilar tasarrufidagi mavjud individual ma'lumotlardan faqat statistika maqsadlarida, jamlanma statistika ma'lumotlarini shakllantirish uchun foydalaniladi.

Davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar, shu jumladan xalqaro tashkilotlar tomonidan individual ma'lumotlardan tergov, nazorat qilish, sud muhokamasi, ma'muriy qarorlar qabul qilish maqsadida yoki jismoniy va yuridik shaxslarga yoki uy xo'jaliklariga taalluqli boshqa maqsadlarda foydalanilishi mumkin emas.

Statistika agentligi xodimlari axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik prinsiplariga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday individual ma'lumotlarni oshkor qilmasliklari kerak.

Ularni lavozimga tayinlash paytida majburiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Statistika agentligining har bir xodimi ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini o'z ichiga olgan shartnomaga qo'l qo'yishi shart.

0.1.4 Statistik hisobotlarni taqdim etish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 14-moddasiga asosan, statistika organlari davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan, banklardan hamda boshqa tashkilotlardan statistika kuzatuvini shakllarini olish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi [kodeksining](#) 215-moddasiga muvofiq mansabdor shaxslarning statistika kuzatuvini olib borish uchun zarur bo'lgan hisobot va boshqa ma'lumotlarni taqdim etmaslikda ifodalangan statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzishi, hisobot ma'lumotlarini buzib ko'rsatishi yoki hisobotlarni taqdim etish muddatlarini buzishi bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 16-moddasiga asosan, Statistika dasturlariga binoan statistika kuzatuvlarini o'tkazish chog'ida respondentlar rasmiy statistikani tayyorlovchilarga ishonchli va to'liq ma'lumotlarni rasmiy statistikani tayyorlovchi tomonidan belgilangan tartibda va muddatlarda bepul taqdim etishi shart.

0.2 Resurslar

0.2.1 Kadrlar, moddiy-texnika bazasi, kompyuter vositalari va moliyalashtirish

Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibini shakllantirish bilan Markaziy apparatda 4 nafar xodim va hududiy statistika boshqarmalarining investitsiya va qurilish bo'limlarida 2 nafar xodim shug'ullanadi. Xodimlar soni asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibini shakllantirish uchun qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun yetarli.

Barcha xodimlar iqtisodiy sohada oliy ma'lumotga ega va har ikki yilda kamida bir marta Statistika agentligining Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida malaka oshiradilar.

Har bir ish o‘rni shaxsiy kompyuter bilan ta‘minlangan, dasturiy ta‘minot muntazam yangilanib turiladi. Taqdim etilayotgan moliyaviy resurslar investitsiyalar statistikasi bo‘yicha statistika dasturida belgilangan ishlarni bajarish uchun yetarli.

1. Beg‘arazlik

1.1 Kasbiy mahorat

1.1.1 Statistikaning xolisligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan, rasmiy statistikasining asosiy prinsiplari, jumladan beg‘arazlik va xolislik hisoblanadi.

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunining 13-moddasiga asosan, Davlat organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari statistika organlarining ushbu Qonunga muvofiq amalga oshirilayotgan faoliyatiga aralashishga haqli emas.

Hududiy statistika boshqarmalari, tumanlarning (shaharlarning) statistika bo‘limlari mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqil bo‘lib, bevosita vakolatli davlat organiga bo‘ysunadi.

Mazkur statistik ma‘lumotni ishlab chiqishda boshqa davlat organlarining aralashishiga yo‘l qo‘yilmagan va kasbiy mustaqillik to‘liq ta‘minlangan.

Kadrlarni tanlab olish va ularni yuqori lavozimlarga tayinlashda, ularning statistika sohasida tajribasi va kasbiy malakasi e‘tiborga olinadi. Boshqarma xodimlari malakasini oshirish O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti tomonidan tashkil etiladigan o‘quv kurslarida hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan tashkil etiladigan o‘quv kurslari, o‘quv-amaliy seminarlarda ishtirokini ta‘minlash orqali ta‘minlanadi. Boshqarma xodimlari Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida tashkil etilgan o‘quv kurslarida ma‘ruzalar bilan ishtirok etadi. Ommaviy axborot vositalarida Boshqarma xodimlarining ilmiy maqolalarini e‘lon qilib borish tashkil etilgan.

1.1.2 Manbalar, uslublar va tarqatish usullarini tanlash

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 33-moddasiga muvofiq:

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar rasmiy statistikaning sifatini doimiy asosda baholab boradi. Sifat kafolatini ta‘minlash uchun rasmiy statistika rasmiy statistikaning qamrovi, tushunchalari, statistik birliklari va tasniflariga taalluqli umumiy prinsiplar hamda usullar asosida tayyorlanadi va tarqatiladi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar rasmiy statistikaning sifatini yaxshilash maqsadida ma‘lumotlarni tahlil etish va tahrir qilish, turli manbalardan olingan ma‘lumotlarni birlashtirish, ma‘lumotlarni statistika maqsadlarida bir-biriga bog‘lashni va solishtirishni amalga oshirish hamda baholashning statistik usullaridan foydalanish huquqiga ega.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar tayyorlash jarayonida foydalaniladigan manbalar va usullarni, shuningdek yakuniy ma‘lumotlar to‘plamlarini hujjatlashtirib boradi. Rasmiy statistikadan foydalanuvchilar statistika ma‘lumotlarining manbalari va ularni tayyorlash usullari hamda rasmiy statistika ma‘lumotlarining sifati to‘g‘risida metama‘lumotlar yordamida xabardor qilinadi.

1.1.3 Statistik ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilish yoki undan noto'g'ri foydalanish bo'yicha sharh

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

Statistika agentligi statistik ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilish va statistik ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanilganda o'z izohini berishi mumkin.

1.2 Shaffoflik

1.2.1 Statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish qoidalarini va tartibini oshkoraligi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

“Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonunning 6-moddasiga binoan, rasmiy statistikaning asosiy prinsiplari tushunarlik va shaffoflik. Statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish bo'yicha shartlar O'zbekiston Respublikasining statistikaga oid qonun hujjatlarida keltirilgan. Ushbu qonunchilik choralari veb-saytga joylashtirilgan va jamoatchilikni ular bilan tanishish imkoniyati mavjud. “Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonun va statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish va tarqatish muddatlari aniq ko'rsatilgan statistika dasturi Statistika agentligi rasmiy veb-saytiga (www.stat.uz) joylashtirilgan. Qonun Oliy Majlis byulletenida, normativ-huquqiy hujjatlar bazasi (norma), shuningdek Adliya vazirligining www.lex.uz manzilida joylashgan ma'lumotlar bazasida ham mavjud. Statistik ma'lumotlarni shakllantirish uchun respondentlar tomonidan taqdim etiladigan statistika hisoboti shakllari Statistika agentligi rasmiy veb-saytida foydalanuvchilar uchun oldindan e'lon qilinadi.

1.2.2 Hukumatning statistik ma'lumotlar e'lon qilinishidan oldin ko'rishning ichki imkoniyati

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

Hukumat Statistika agentligi tomonidan tayyorlangan statistik ma'lumotlarni ularni e'lon qilish vaqtidan oldin ko'rish imkoniyatiga ega emas. Statistik ma'lumotlarni tarqatishda statistika organlari mustaqildir. Davlat organlarining aralashuviga yo'l qo'yilmaydi (“Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonunning 13-moddasi). Faqat Agentlik direktori, uning o'rinbosarlari va mas'ul xodimlar statistik ma'lumotlar e'lon qilinishidan oldin ularni ko'ra oladi.

1.2.3 Statistik ma'lumotlarning atributlari (belgilari)

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

Jamoatchilikka e'lon qilinayotgan bosma statistik nashrlar, axborotnomalar, ommaviy axborot vositalarida berilayotgan ma'lumotlarning Statistika agentligi tomonidan ishlab chiqilganligi uning logotipi va izohlari orqali aniq belgilanadi.

1.2.4 Uslubiyatlar, ma'lumotlar manbasi va statistik usullardagi asosiy o'zgarishlar haqida oldindan xabardor qilish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

Yangi uslubiyatga o'tishdan, mavjud uslubiyatlar va usullarga sezilarli o'zgartirishlar kiritishdan oldin Statistika agentligi jamoatchilikni oldindan xabardor qiladi. Statistika agentligi o'z rasmiy veb-saytida foydalanuvchilarni qanday o'zgarishlar kutayotganini tushuntiruvchi tegishli uslubiy ko'rsatmalarni joylashtiradi. Maqolalar, yangiliklar va matbuot anjumanlarida kutilayotgan o'zgarishlar jamoatchilikka yetkaziladi.

1.3. Axloq me'yorlari

1.3.1 Xodimlarning axloq me'yorlari bo'yicha ko'rsatmalar

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

Statistika agentligi xodimlari uchun Odob-axloq qoidalari tasdiqlangan. Ular axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik prinsipiga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday ma'lumotlarni oshkor qilmasligi kerak. Ular lavozimga tayinlanayotganda ushbu majburiyatlar haqida tushuntirishlar beriladi. Statistika agentligi xodimi individual ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini olgan shartnoma tuzishi shart.

2. Uslubiyat

2.1 Konsepsiya va tushunchalar

2.1.1 Konsepsiya va tushunchalar

Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi quyidagilardan iborat:

- a) yangi qurilish;
- b) kengaytirish (yillik hisobotda alohida yo'nalish), rekonstruksiya, texnik va texnologik qayta jihozlash, modernizatsiyalash;
- d) boshqa yo'nalishlar.

2.2 Statistik qamrov

2.2.1 Statistik qamrov

2.2.1.1 Ma'lumotlarning statistik qamrovi

Ma'lumotlarning geografik qamrovi Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyat va Toshkent shahrini o'z ichiga oladi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibini hisoblash barcha turdagi faoliyat tashkilotlarining hisobot ma'lumotlari asosida hisoblanadi.

2.2.1.2 Statistik qamrovdan istisnolar

Hech qanday istisnolar yo'q.

2.2.1.3 Aniqlanmagan faoliyat

Yashirin iqtisodiyot hisobga olinmaydi.

2.3 Tasniflash/sectorlar bo'yicha taqsimlash

2.3.1 Tasniflash/sectorlar bo'yicha taqsimlash

Ko'rsatkich butun iqtisodiyot, hududlar, mulkchilik shakllari, vazirliklar va idoralar kesimi bo'yicha hisoblanadi.

2.4 Hisobga olish asoslari

2.4.1 Baholash

Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi joriy narxlarda (ming so'm) va har bir tarkibiy qismni jamiga bo'lib, 100 ga ko'paytirish orqali aniqlanadigan ulushlar ko'rinishida shakllantiriladi.

2.4.2 Hisobga olish asosi

Tranzaksiya va oqimlar MHT-2008 tavsiyalariga muvofiq keladigan hisoblash usuli bilan ro'yhatga olinadi.

2.4.3 Yalpi/sof ko'rsatkichlarni hisoblash tartib-taomillari

Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi statistik hisobi, qo'shimcha qiymat solig'ini qo'shgan holda, hisobot davrida amaldagi narxlarda (ming so'm), to'lov amalga oshirilgan paytdan qat'iy nazar, haqiqatda o'zlashtirilgan hajm miqdorida amalga oshiriladi.

3. Aniqlilik va ishonchlik

3.1 Birlamchi ma'lumotlar

3.1.1 Birlamchi ma'lumotlarni yig'ish asoslari

Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibini hisoblash bo'yicha ko'rsatkichlarining axborot bazasi investitsiya faoliyatini amalga oshirgan barcha yuridik shaxslarning statistika hisoboti ma'lumotlari, shuningdek, yakka tartibdagi turar-joy binolari va xo'jalik yordamchi inshootlarini kuzatuv ko'rsatkichlari hisoblanadi.

3.1.2 Birlamchi ma'lumotlarning ta'rifi, qamrovi, tasniflari, baholanishi va hisobga olish davri

Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi ko'rsatkichlarini shakllantirilishi buxgalteriya hisobi va hisobot davridagi muddatga to'g'ri keladi. Bajarilish vaqti choraklik – hisobot davridan keyingi 23-kunidan kechiktirmasdan, har yili – hisobot davridan keyingi 6 oydan oshmasdan chiqariladi.

3.1.3 Birlamchi ma'lumotlarning o'z vaqtida tayyor bo'lishi

Ma'lumotlarni yig'ish yillik statistika dasturi bilan muvofiqlashtiriladi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi ko'rsatkichlari to'g'risidagi choraklik ma'lumotlar Statistika agentligi tomonidan hisobot davridan keyin 23-kunidan kechikmasdan shakllantiriladi va u joriy ma'lumotlar standartiga mos keladi. Yillik ma'lumotlar - hisobot davridan keyingi 6 oydan oshmasdan chiqariladi.

3.2 Birlamchi ma'lumotlarni baholash

3.2.1 Birlamchi ma'lumotlarni baholash

Korxonalaridan olingan ma'lumotlar nafaqat viloyat statistika organlari darajasida tahlil qilinadi, qolaversa Statistika agentligida ham nazorat va tekshiruvdan o'tadi. Ro'yhatga olish, tasniflash va xatolarni tekshirishda aniqlangan xato va kamchiliklar albatta respondentlar bilan yana bir bor aniqlashtirilib olinadi. Birlamchi ma'lumotlar boshqa tegishli ma'lumot manbalari bilan taqqoslash yo'li orqali tahlil qilinadi.

3.3 Statistik usullar

3.3.1 Birlamchi ma'lumotlar bilan ishlashda statistik usullar

Ayrim toifalar uchun baholash hisob-kitoblari so'rovnomalar ma'lumotlari bilan konseptual muvofiqlashtirilgan va umumiy yondashuvlarga ega.

Respondentlar tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlarning majburiyligi "Rasmiy statistika to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan belgilab qo'yilgan.

3.3.2 Boshqa statistik jarayonlar

Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi ko'rsatkichlarini hisoblash uslubiy asoslari Statistika agentligining "Nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalar umumiy hajmini shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom" (2024 - yil 25 - apreldagi 55 - sonli buyruq bilan tasdiqlangan); Statistika agentligining "Yakka tartibdagi uy-joy va hovli hududi xo'jaliklari qurilishlariga aholi xarajatlarini baholash bo'yicha uslubiy nizom" (2023 - yil 21 - sentabrdagi 63 - son buyruq bilan tasdiqlangan). Uslubiy nizomlar "Milliy hisoblar tizimi - 2008" ga asosan muvofiqlashtirilgan.

3.4 Ma'lumotlarni taqqoslash

3.4.1 Oraliq natijalarni taqqoslash

Baholangan va hisobot ma'lumotlari muntazam ravishda solishtirib boriladi. Dastlabki va aniqlashtirilgan ma'lumotlar orasida katta tafovut chiqmaydi.

3.4.2 Oraliq ma'lumotlarni baholash

Asosiy oraliq ma'lumotlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nomuvofiqliklar tahlili o'tkazilib, ma'lumotlar mos kelmaslik holatini bartaraf etish uchun ko'rsatkichlar tuzatib boriladi.

3.4.3 Yakuniy statistik ma'lumotlardagi tafovutlar va boshqa nomuvofiqliklarni o'rganish

Avval nashr etilgan ma'lumotlarda nomuvofiqlik mavjud bo'lsa, keyingi ma'lumotlarda bu ma'lumotlarga o'zgartirish kiritiladi. Muvofiqlashtirish boshqa tashkilotlar va korxonalar bilan amalga oshirilishi mumkin.

3.5 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish tahlili

3.5.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish

Yanvar-dekabr oylari uchun dastlabki yillik ko'rsatkichlar hisobot davridan keyin 6 oydan kechiktirmay yillik hisobot ma'lumotlari bilan taqqoslanadi.

4. Amaliy yaroqlilik

4.1 Davriylik va o'z vaqtidaligi

4.1.1 Davriylik

Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi ko'rsatkichlari har oyda, aniqlashtirilgan ma'lumotlar esa yillik hisobot asosida shakllantiriladi.

4.1.2 O'z vaqtidaligi

Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi choraklik ko'rsatkichlari hisobot davridan keyingi oyning 23-kuni, yillik ko'rsatkichlar esa hisobot davridan keyin 6 oydan kechikmasdan e'lon qilinadi.

4.2 Qiyosiylik

4.2.1 Ichki qiyosiylik

Statistik qatorlar tasdiqlanib, e'lon qilingandan so'ng qayta ko'rib chiqilmaydi.

4.2.2 Vaqt bo'yicha qiyosiylik

2000- yildan boshlab asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi ko'rsatkichlari bo'yicha dinamik qatorlar mavjud.

4.2.3 Sektorlar va sohalar o'rtasidagi qiyosiylik

Statistik hisobot shakllari bo'yicha ma'lumotlar ma'muriy manbalardan olingan ko'rsatkichlar bilan muvofiqlashtirilgan.

4.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish

4.3.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish jadvali

Ma'lumotlar statistika dasturida belgilangan muddatlarda aniqlashtirilgan yillik hisobotlar asosida qayta ko'rib chiqiladi.

4.3.2 Dastlabki va/yoki qayta ko'rib chiqilgan ma'lumotlarni aynan shu toifasi bo'yicha belgilash

Ma'lumotlar yillik statistika dasturida belgilangan muddatlarda aniqlashtirilgan yillik hisobotlar asosida qayta ko'rib chiqiladi.

Dastlabki va/yoki qayta ko'rib chiqilgan ma'lumotlarni e'lon qilishda tegishli yozuv (havola) kiritiladi.

4.3.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish bo'yicha olingan natijalarni tarqatish

Statistik to'plamlarda oldingi yil uchun ayrim ko'rsatkichlar qayta ko'rib chiqilishi ko'rsatiladi. Qayta ko'rib chiqilgan (yakuniy) ma'lumotlar Statistika agentligining nashrlari orqali chop etiladi.

5. Qulayligi

5.1 Ma'lumotlar

5.1.1 Statistik ma'lumotlarni taqdim etish

Ma'lumotlar foydalanuvchilarning murojaatiga muvofiq taqdim etiladi.

5.1.2 Ma'lumotlarni tarqatish vositalari va shakllari

5.1.2.1 Bosma shaklda – Yangi nashr

Mavjud emas.

5.1.2.2 Bosma shaklda – Oylik byulletenlar

Mavjud emas.

5.1.2.3 Bosma shaklida – Choraklik byulletenlar

Mavjud emas.

5.1.2.4 Bosma shaklda – Yillik byulletenlar

Mavjud emas.

5.1.2.5 Bosma shaklda – Boshqalar

Foydalanuvchilarning maxsus so‘rovlari bo‘yicha jadvallar.

5.1.2.6 Elektron shaklda - Byulleten yoki nashrlar

Har chorakda va yillikda jadvallar elektron ko‘rinishda.

5.1.3. Ma’lumotlarni e’lon qilish jadvali

Statistika dasturida belgilangan muddatlarga muvofiq shakllantiriladi.

5.1.4 Bir vaqtning o‘zida e’lon qilish

Statistik ma’lumotlar barcha foydalanuvchilarga so‘rov bo‘yicha taqdim etiladi.

5.1.5 So‘rov bo‘yicha ma’lumotlarni tarqatish

Mavjud muayyan (konkret) ma’lumotlar murojaat bo‘yicha berilishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi qonuni va boshqa me‘yoriy hujjatlarga muvofiq, statistik ma’lumotlar foydalanuvchilarga ularning so‘rovlari bo‘yicha belgilangan tartibda taqdim etiladi. Statistik ma’lumotlarni tarqatish yuridik yoki jismoniy shaxslarning yozma so‘roviga ko‘ra bosma yoki elektron jadvallar ko‘rinishida, shuningdek, tomonlarning axborot almashinuvi to‘g‘risidagi shartnomalariga muvofiq tezkor axborotni taqdim etish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

5.2 Metama’lumotlar

5.2.1 Konsepsiyalar, statistik qamrov, tasniflar, hisobga olish asoslari, ma’lumotlar manbasi va statistik usullar to‘g‘risidagi hujjatlar va ma’lumotlarni tarqatish

Statistika agentligining veb-saytida investitsiya faoliyatining statistik ko‘rsatkichlarini shakllantirish va hisoblash bo‘yicha qo‘llanmalar joylashtirilib kelinadi.

5.3. Foydalanuvchilarga yordam ko‘rsatish

5.3.1 Aloqa bog‘lash bo‘yicha ma’lumotlarni tarqatish

Foydalanuvchilarda savollar bo‘lsa, Investitsiyalar va qurilish statistikasi boshqarmasi xodimlari bilan tegishli ko‘rsatkichlarga aniqlik kiritish uchun zarur bo‘lgan aloqa ma’lumotlari Statistika agentligining veb-saytida mavjud.

9. Rejalar

9.1 Oxirgi

9.1.1 Takomillashtirish rejasi – Oxirgi takomillashtirishlar

Statistika kuzatuvlarining vositalarini (shakllari va anketalari) takomillashtirish.

9.2 Umumiy

9.2.1 Takomillashtirish rejasi – Qisqa muddatli

Statistik kuzatuvlar vositalarini takomillashtirish.

9.2.2 Takomillashtirish rejasi – O‘rta muddatli

Statistik kuzatuvlar vositalarini takomillashtirish.

9.3 Moliyaviy

9.3.1 Takomillashtirish rejasi – texnik/moliyaviy ko‘makka talab – Qisqa muddatli

Moliyalashtirish Statistika dasturi doirasida ko‘zda tutilgan.

9.3.2 Takomillashtirish rejasi - texnik/moliyaviy ko‘makka talab – O‘rta muddatli

Moliyalashtirish Statistika dasturi doirasida ko‘zda tutilgan.

Aloqa bog'lash uchun shaxs (shaxslar):

F.I.O.:	Jomolov Muzaffar Mirzoxitovich
Lavozim:	Boshqarma boshlig'i
Bo'linma:	Investitsiyalar va qurilish statistikasi boshqarmasi
Idora:	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi
Manzil:	Mustaqillik shoh ko'chasi, 63-uy
Shahar/region:	Toshkent shahri
Mamlakat:	O'zbekiston Respublikasi
Pochta indeksi:	100170
Telefon: mamlakat kodi/shahar kodi/raqam	998-71-202-8056
Faks: mamlakat kodi/shahar kodi/raqam	
Elektron manzil:	